IJTIMOIY YOLG‘IZLIK FENOMENINING FALSAFIY-ANTROPOLOGIK TAHLILI VA JAMIYAT BARQARORLIGIGA TA’SIRI

Temirova Nilufar Erkinovna
Guliston davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy yolg‘izlik fenomeni falsafiy-antropologik metodologiya asosida tahlil qilinib, uning jamiyat barqarorligiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. L.Feyerbax, K.Marks, F.Nitsshe, M.Xaydegger, A.Kamyu va G.Marsel falsafiy merosiga tayangan holda yolg‘izlikning ontologik tabiati, insonning ijtimoiy mohiyati bilan ziddiyati va zamonaviy texnogen jamiyatdagi yangi ko‘rinishlari tahlil etiladi. Maqolada ijtimoiy yolg‘izlikning kadrlar salohiyatini zaiflashtirishdagi roli, uning jamiyatdagi ijtimoiy kapital va hamjihatlikka ta’siri ochib beriladi. O‘zbekiston milliy-madaniy kontekstida yolg‘izlikning o‘ziga xos ko‘rinishlari va profilaktika imkoniyatlari ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy yolg‘izlik, falsafiy antropologiya, ontologiya, inson mohiyati, jamiyat barqarorligi, ijtimoiy kapital, texnogen jamiyat, ekzistensializm, absurd, O‘zbekiston.

KIRISH. Inson qanday mavjudot? Bu savol falsafiy antropologiyaning markaziy muammosidir. Arastu “inson — ijtimoiy mavjudot” degan tarixiy ta’rifni berganda, u nafaqat insonning ijtimoiy tabiatini, balki bu tabiatning buzilish imkoniyatini va yolg‘izlikni ham falsafiy kun tartibiga qo‘ydi. Ijtimoiy yolg‘izlik insonning o‘z ijtimoiy mohiyatidan uzilishi, o‘zini jamiyatda g‘arib va begona his etishi holati zamonaviy falsafaning eng dolzarb muammolaridan biriga aylangan.

Paradoksal holat shundaki, insoniyat tarixi davomida hech qachon odamlar texnik jihatdan bir-biriga bu qadar “yaqin” bo‘lmagan. Internet, smartfonlar, ijtimoiy tarmoqlar — bularning barchasi daqiqalar ichida millionlarni bog‘laydi. Ammo sotsiologik tadqiqotlarda zamonaviy inson yolg‘izlik darajasi o‘sib borayotganini ko‘rsatmoqda. Bu paradoks yolg‘izlikning texnik muammo emas, balki chuqur falsafiy-antropologik muammo ekanligini tasdiqlaydi. Yolg‘izlik — bu odamlar soni emas, munosabatlarning ontologik sifati masalasidir. Jamiyat barqarorligi nuqtai nazaridan ijtimoiy yolg‘izlik ayniqsa xavflidir: yolg‘iz fuqarolar jamiyati — hamjihatlik, o‘zaro ishonch va birgalikdagi maqsadlardan mahrum jamiyat. Bunday jamiyatda kadrlar salohiyati so‘nadi, ijtimoiy institutlar zaiflashadi va barqarorlikka tahdidlar kuchayadi. O‘zbekiston uchun esa, jadal urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlarida an’anaviy ijtimoiy to‘qimalar ta’ziyq ostida qolayotgan bir davrda, bu muammoni falsafiy jihatdan o‘rganish va amaliy yechimlar topish strategik zaruriyatga aylanmoqda.

Feyerbax va Marks: inson mohiyati va uning buzilishi. Lyudvig Feyerbax (1841) o‘zining “Xristianlikning mohiyati” asarida insonning ijtimoiy tabiatini yangicha asosladi: inson o‘z mohiyatini faqat boshqa inson bilan munosabatda namoyon qiladi. “Men” “Sen” siz mavjud emas — bu Feyerbaxning insonning ijtimoiy ontologiyasidagi asosiy tezisidir. Yolg‘izlik Feyerbax uchun inson mohiyatiga zid holat: u “men”ning “ sen”dan ajralishi, insonning o‘z-o‘ziga qopqon bo‘lishidir. Karl Marks (1844) Feyerbaxning bu g‘oyasini yanada rivojlantirib, begonalashuv nazariyasida aniqlashtirdi. Marks uchun inson mohiyati — Gattungswesen, ya’ni “tur-mohiyat” — nafaqat biologik, balki ijtimoiy-tarixiy kategoriya. Inson o‘z mohiyatini ongli, erkin va ijtimoiy mehnat orqali namoyon qiladi. Yolg‘izlik esa aynan shu ijtimoiy mohiyatdan uzilishning eng og‘riqli ko‘rinishi: yolg‘iz inson nafaqat boshqalardan — u o‘z-o‘zidan, o‘z ijodiy va ijtimoiy tabiatidan ham uzilib qoladi.

Zamonaviy mehnat muhitida bu hodisa o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. “Ochiq ofis” rejimida yuz kishilik binoda ishlayotgan, ammo hech kim bilan haqiqiy muloqotga kirisha olmaydigan mutaxassis — Marks tasvirlagan begonalashuvning zamonaviy portreti. U texnik jihatdan “jamoada” ishlaydi, ammo ontologik jihatdan yolg‘iz. Bu holat uning ijodiy va intellektual salohiyatini to‘liq namoyon qilishiga to‘sqinlik qiladi.

Nitsshe: yolg‘izlik — kuch yoki zaiflik? Fridrix Nitsshe (1883) yolg‘izlikka boshqacha ambivalent munosabatda bo‘ladi. Uning Zaratushrasi deydi: “Men yolg‘izlikni sevaman — ya’ni sog‘lom yolg‘izlikni, o‘z-o‘zini topish uchun chetga chiqishni”. Nitsshe uchun ijodiy yolg‘izlik — kuchli insonning hususiyati, o‘z fikrlarini ommaning shovqinidan himoya qilish usuli. Ammo Nitsshe bir vaqtda boshqa turdagi yolg‘izlikni yani zaiflik yolg‘izligini, insonning o‘z kuchsizligi va birikish qo‘rquvi sababli yolg‘iz qolishini tanqid qiladi. Nitsshe falsafasida kadrlar salohiyati uchun muhim xulosa bor: haqiqiy yolg‘izlik yaratish uchun zarur bo‘lgan ichki jimlik, destruktiv yolg‘izlik, ijtimoiy uzilish va begonalik o‘rtasidagi farqni ko‘ra bilish zarur. Zamonaviy tashkilotlar ko‘pincha bu farqni hisobga olmaydi: har bir daqiqani “jamoa faoliyati” bilan to‘ldirib, mutaxasisni haqiqiy ichki refleksiya va ijodiy yolg‘izlikdan ham mahrum qiladilar. Natijada ham ijodiy salohiyat, ham ijtimoiy aloqa — ikkalasi ham so‘nadi.

Alber Kamyu: absurd va yolg‘izlikning ekzistensial o‘lchami. Alber Kamyu (1942) o‘zining “Sisif afsonasi” asarida zamonaviy inson yolg‘izligini absurd tushunchasi orqali tavsiflaydi. Absurd — bu inson o‘z hayotiga ma’no izlash talabi bilan, olamning bu talabga javob bermasligi o‘rtasidagi ziddiyat. Absurd holatidagi inson nihoyatda yolg‘iz: u ma’no izlaydi — olam jim; u javob kutadi — sukunat; u birikishni xohlaydi — oraliq uzilmaydi. Kamyu yolg‘izlikdan qochishning uch yo‘lini ko‘rsatadi: jismoniy o‘ldirish (rad etiladi), falsafiy sakrash — diniy yoki mafkuraviy qochish (rad etiladi) va isyon — absurdni tan olib, unga qaramay hayot kechirishni tanlash (qabul qilinadi). Kadrlar salohiyati kontekstida Kamyu xulosası muhim: absurd va yolg‘izlik sharoitida ham ijodiy va mas’uliyatli hayot kechirish mumkin, ammo buning uchun shaxs yolg‘izligini anglab, unga qarshi kurashishi zarur. Ijtimoiy ish amaliyoti aynan shu kurashda yordamchi bo‘lishi mumkin.

Gabriel Marsel: muloqot va ishtirok falsafasi. Gabriel Marsel (1935) Fransuz xristian ekzistensializmi vakili — yolg‘izlikka qarshi falsafiy davo sifatida “ishtirok” va «mavjudlik» tushunchalarini ilgari suradi. Marsel uchun inson yolg‘izligining ikkita asosiy sababi bor: ob’ektivlashtirish — boshqalarni “u” sifatida, ya’ni ob’ekt sifatida ko‘rish va yopiqlik o‘zini boshqalardan himoya qilib, haqiqiy muloqotdan qochish. Yolg‘izlikdan chiqish yo‘li esa “Sen” munosabati boshqani ob’ekt emas, shaxs sifatida qabul qilish, unga “ochilish”. Marsel falsafasi zamonaviy tashkilotlar va jamiyat uchun chuqur amaliy mazmun kasb etadi. Xodimlar raqamlarga, KPIlarga va funksional rollarga aylantirilgan tashkilotda Marsel tili bilan aytganda “u” munosabati hukmron bo‘lgan muhitda — yolg‘izlik muqarrar. Aksincha, har bir xodim shaxs sifatida ko‘rilgan, haqiqiy muloqot va ishtirok qadriyatga aylangan muhitda yolg‘izlik chekinadi va kadrlar salohiyati gullab-yashnaydi.

Raqamli yolg‘izlik: virtual yaqinlik, haqiqiy uzoqlik. Raqamli texnologiyalar yolg‘izlik fenomeniga yangi, paradoksal o‘lcham qo‘shdi. Ijtimoiy tarmoqlarda minglab “do‘sti” bor, ammo haqiqiy samimiy muloqotdan mahrum odam — zamonaviy yolg‘izlikning eng keng tarqalgan portreti. Bu holat Xaydegger (1927) “Das Man” tushunchasi bilan yaqin bog‘liq: ijtimoiy tarmoqlar insonni ommaning “Das Man”iga yuzlab kishining kutishlari, reaksiyalari va baholariga bog‘lab qo‘yadi. Inson virtual “hamma” bilan birga bo‘la turib, ontologik jihatdan yolg‘iz qoladi. Raqamli yolg‘izlik kadrlar salohiyatiga o‘ziga xos zarar yetkazadi. Virtual muloqotga o‘tgan mutaxassis haqiqiy, yuzma-yuz muloqot ko‘nikmalarini yo‘qotadi — empatiyani, jonli tinglashni, noverbal signallarni o‘qishni. Bu ko‘nikmalar esa jamoaviy ishlash, mijozlar bilan muloqot va rahbarlik uchun zarur. Yuldashova tadqiqotida yoshlar o‘rtasida raqamli muloqotga ortiqcha bog‘liqlik va yuzma-yuz muloqot ko‘nikmalarining pasayishi o‘rtasida kuchli bog‘liqlik aniqlangan.

Shahar yolg‘izligi: olomon ichidagi yolg‘izlik. Urbanizatsiya yolg‘izlik fenomenini keskinlashtiruvchi eng muhim ijtimoiy jarayonlardan biri. Katta shahar bu Simmel (1903) ta’rifidagi “blase” (befarq, zerikkan) muhit: million inson bir-birining yonidan o‘tadi, ammo ko‘zlari kesishmaydi, muloqot qilmaydi, bir-birini ko‘rmaydi. Shahar hayotining sur’ati, anonimlik va funksional munosabatlar ustunligi haqiqiy yaqinlik va hamjihatlik uchun joy qoldirmaydi. O‘zbekistonda shaharlanish jarayoni tez sur’atda kechmoqda. Toshkent va boshqa yirik shaharlar aholisining o‘sishi bilan birga, an’anaviy mahalla tizimining zaiflashuvi va yangi shahar turmush tarzining yolg‘izlashtiruvchan ta’siri kuchaymoqda. Qishloqdan shaharga ko‘chib kelgan inson na

eski ijtimoiy tarmoqlaridan, na yangi shahar muhitining ijtimoiy kapitalidan to‘liq foyda ko‘ra olmaydi. Bu ikki tomonlama izolyatsiya O‘zbekistonlik shahar yolg‘izligining o‘ziga xos ko‘rinishini tashkil etadi.

Kasbiy yolg‘izlik: jamoada begonalashuv. Kasbiy yolg‘izlik — mutaxassisning o‘z professional hamjamiyatidan, jamoasidan va kasbiy identifikatsiyasidan uzilishi kadrlar salohiyatiga bevosita zarar yetkazuvchi alohida hodisa. Bu holat tashqi kuzatuvchi uchun ko‘rinmas bo‘lishi mumkin: mutaxassis jismonan ish joyida, jamoada. Ammo u o‘zini tushunilmagan, qadrlanmagan va begona his etadi. Marsel “Sen” va “U” munosabatlari falsafasi nuqtai nazaridan kasbiy yolg‘izlik bu ish muhitida “Sen” munosabatining yo‘qolishi va “U” munosabatining hukmronligi. Xodim boshqalarni va boshqalar uni funksional rol egasi sifatida ko‘radi inson sifatida emas. Xonneth (1995) tan olinish nazariyasida bu holat — kasbiy hamjihatlik sferasidagi tan olinishning yo‘qolishi shaxsda chuqur begonalashuv va yolg‘izlik his-tuyg‘ularini keltirib chiqarishi tasdiqlangan. Xojibekov va Qurbonboyev O‘zbekiston tadqiqotlarida kasbiy yolg‘izlik darajasi yuqori bo‘lgan mutaxassislarda professional burnout ehtimoli 2-3 baravar yuqori ekanligi aniqlangan.

Ijtimoiy kapital va hamjihatlikning yemirilishi. Robert Patnam (2000) o‘zining “Bowling Alone” asarida ijtimoiy kapitalning shaxslararo ishonch, hamkorlik tarmoqlari va fuqarolik faolligining so‘nggi o‘n yilliklarda keskin kamayishi va buning demokratik institutlarga salbiy ta’sirini empirik jihatdan ko‘rsatdi. Ijtimoiy yolg‘izlik va kapitalning yemirilishi o‘rtasidagi bog‘liqlik bevosita: yolg‘iz odamlar ijtimoiy tarmoqlar qurmaydi, jamoatchilik faoliyatida ishtirok etmaydi va bir-biriga ishonmaydi.

Durkheim (1897) nazariyasida jamiyat barqarorligi ikki turdagi hamjihatlikka tayanadi: mexanik hamjihatlik umumiy qadriyatlar va an’analar asosidagi birlik va organik hamjihatlik funksional o‘zaro bog‘liqlik. Ijtimoiy yolg‘izlik ikkala hamjihatlik turini ham zaiflashtiradi: yolg‘iz inson na umumiy qadriyatlarni baham ko‘radi, na funksional hamkorlikka o‘z hissasini to‘liq qo‘shadi. Natijada jamiyatning umumiy “bog‘lovchi to‘qimasi” yemiriladi va barqarorlik asoslari zaiflashadi.

Kadrlar salohiyatiga sistemali ta’sir. Ijtimoiy yolg‘izlikning kadrlar salohiyatiga ta’siri uch yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, motivatsiya va kasbiy identifikatsiyaning yo‘qolishi: yolg‘iz mutaxassis o‘z ishida ma’no va maqsad ko‘rmaydi, kasbiy o‘sishga intilish so‘nadi, innovatsion fikrlash imkoniyati qolmaydi. Frankl (1959) ta’kidlaganidek, ma’nosizlik — ekzistensial vakum inson salohiyatining eng xavfli dushmandir. Ikkinchidan, ijtimoiy ko‘nikmalar va hamkorlik qobiliyatining pasayishi: yolg‘iz mutaxassis jamoaviy ishlash, bilim almashish va ijodiy hamkorlik ko‘nikmalarini yo‘qotadi. Bu esa zamonaviy bilimga asoslangan iqtisodiyotda mutaxassisning raqobatbardoshligini keskin pasaytiradi. Uchinchidan, psixosomatik muammolar: ijtimoiy yolg‘izlikning surunkali stress, immunitet tizimining zaiflashuvi va turli kasalliklarning rivojlanishiga olib kelishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Sog‘lom bo‘lmagan mutaxassis esa o‘z salohiyatini to‘liq namoyon eta olmaydi.

O‘zbekiston konteksti: an’anaviy resurslar va zamonaviy tahdidlar. O‘zbekiston jamiyati ijtimoiy yolg‘izlikka qarshi o‘ziga xos milliy resurslarga ega. An’anaviy mahalla instituti, keng oilaviy aloqalar, qo‘ni-qo‘shnichilik va o‘zaro yordam madaniyati — bularning barchasi ijtimoiy kapitalning boy manbasini tashkil etadi. Durkheim nazariyasida bu “mexanik hamjihatlik”ning tirik namunasi — G‘arb jamiyatlarida yo‘qolgan, ammo O‘zbekistonda saqlanib qolgan noyob ijtimoiy resurs. Biroq ushbu resurslar hozir jadal o‘zgarish va ta’ziyq ostida. Urbanizatsiya an’anaviy mahalla tizimini zaiflashtirib, uning o‘rniga hali shakllanmagan yangi shahar ijtimoiy aloqa tizimini keltirib chiqarmoqda. Raqamli texnologiyalar esa yuzma-yuz muloqotni virtual muloqot bilan almashtirmoqda. Bu o‘tish davrida — an’anaviy resurslar so‘nib, yangilari hali shakllanmagan paytda — ijtimoiy yolg‘izlik xavfi eng yuqori darajada bo‘ladi. Aynan shu sababli O‘zbekiston uchun hozir ushbu muammoni strategik darajada ko‘rib chiqish zarur.

Marsel va Buber: haqiqiy muloqotni tiklash. Gabriel Marsel va Martin Buber falsafasi ijtimoiy yolg‘izlikka qarshi kurashning asosiy yo‘nalishini ko‘rsatadi — haqiqiy muloqot va “Men-Sen” munosabatini tiklash. Buber (1923) asarida “Men-Sen” munosabatini — boshqani to‘liq shaxs

sifatida qabul qilish, unga haqiqiy e’tibor va ochiqlik bilan yondashish va “Men-U” munosabatini boshqani faqat funksional rol egasi sifatida ko‘rishni farqlaydi. Ijtimoiy yolg‘izlik “Men-Sen” munosabatining yo‘qolishi va “Men-U” munosabatining hukmron bo‘lishi natijasida yuzaga keladi. Amaliy jihatdan bu falsafiy g‘oya tashkilotlar, maktablar va mahalla institutlarida “haqiqiy muloqot” madaniyatini shakllantirishni talab qiladi. Bu rasmiy uchrashuvlar emas, balki har bir shaxsni inson sifatida ko‘radigan, uning fikriga quloq soladigan va uni qadrlaydigan muhitni yaratish. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari ushbu madaniyatni tarqatishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Mahalla va fuqarolik jamiyatini mustahkamlash. O‘zbekistonda ijtimoiy yolg‘izlikka qarshi kurashning eng samarali strategik yo‘li — mahalla institutini zamonaviy sharoitga moslashtirgan holda mustahkamlash. Buning uchun mahallalar uchta funksiyani bir vaqtda bajarishi lozim: ijtimoiy funksiya — mahalla a’zolari o‘rtasida haqiqiy muloqot va o‘zaro yordam muhitini saqlash; profilaktik funksiya — yolg‘iz va ijtimoiy jihatdan zaif shaxslarni erta aniqlash va ularga yordam ko‘rsatish; rivojlantiruvchi funksiya — ijodiy, madaniy va kasbiy faoliyatlar orqali a’zolarni faollashtirish.

Fuqarolik jamiyati institutlarini — mustaqil uyushmalar, ko‘ngillilar tashkilotlari, kasbiy ittifoqlar — rivojlantirish ham ijtimoiy yolg‘izlikka qarshi kuchli vosita. Patnam (2000) tadqiqotlarida fuqarolik tashkilotlarida faol ishtirok etuvchi odamlar yolg‘izlik darajasi sezilarli past ekanligi ko‘rsatilgan. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish esa ijtimoiy yolg‘izlik muammosini hal etishning strategik yo‘li sifatida davlat siyosatiga kiritilishi zarur.

XULOSA. Ijtimoiy yolg‘izlik — bu zamonaviy jamiyatning eng chuqur falsafiy-antropologik muammolaridan biri. Feyerbax va Marks insonning ijtimoiy mohiyatini asoslab, yolg‘izlikni bu mohiyatdan uzilish sifatida ta’riflasa, Nitsshe ijodiy va destruktiv yolg‘izlik o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi. Kamyu absurd va yolg‘izlikning ekzistensial o‘lchamini ochib bersa, Marsel va Buber haqiqiy muloqot orqali yolg‘izlikni bartaraf etish yo‘lini ko‘rsatadi. Zamonaviy texnogen jamiyatda yolg‘izlik yangi raqamli, shahar va kasbiy shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Bu shakllar jamiyat barqarorligiga va kadrlar salohiyatiga sistemali zarar yetkazmoqda: ijtimoiy kapitalning emirilishi, hamjihatlikning zaiflashuvi, kasbiy motivatsiyaning so‘nishi va psixosomatik muammolarning kuchayishi — bularning barchasi ijtimoiy yolg‘izlikning jamiyatga yetkazayotgan ko‘rinmas, ammo og‘ir zararidir.

O‘zbekiston uchun an’anaviy mahalla instituti va fuqarolik jamiyati resurslarini zamonaviy falsafiy-metodologik asos — Marsel va Buber “Men-Sen” munosabati falsafasi — bilan uyg‘unlashtirish ijtimoiy yolg‘izlikka qarshi kurashning eng istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi. Bu yo‘l nafaqat alohida shaxslarni yolg‘izlikdan qutqaradi u jamiyatning umumiy ijtimoiy to‘qimasini mustahkamlaydi va barqarorlikni ta’minlaydigan kadrlar salohiyatini yuksaltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Feuerbach L. The Essence of Christianity. — New York: Harper & Row, 1841/1957.
2. Marx K. Economic and Philosophic Manuscripts of 1844. — Moscow: Progress Publishers, 1844/1959.
3. Nietzsche F. Thus Spoke Zarathustra. — New York: Penguin Books, 1883/1961.
4. Heidegger M. Being and Time. — Oxford: Blackwell Publishers, 1927/1962.
5. Camus A. The Myth of Sisyphus. — New York: Vintage Books, 1942/1955.
6. Marcel G. Being and Having. — Westminster: Dacre Press, 1935/1949.
7. Buber M. I and Thou. — New York: Scribner, 1923/1958.
8. Putnam R. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. — New York: Simon & Schuster, 2000.
9. Frankl V. Man’s Search for Meaning. — New York: Beacon Press, 1959.
10. Xojibekov R., Qurbonboev S. Kasbiy muhitda ijtimoiy izolyatsiya va unumdorlikka ta’siri // Central Asian Journal of Academic Research (CAJAR). — 2025. — №2.
11. Yuldashova M. Zamonaviy O‘zbekistonda yolg‘izlik hodisasi: ijtimoiy-falsafiy tahlil. — Toshkent: Fan, 2026.